

MILLIY TARBIYA VA ZAMONAVIY TA'LIM UYG'UNLIGI

Toshtemirova Ra'no Baxtiyor qizi

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti 1-bosqich magistranti

Uralova Gulbahor O'ktamovna

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida milliy tarbiya an'analarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish masalalari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Muallif yosh avlodning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda ajdodlar merosi, milliy qadriyatlar va innovatsion pedagogik metodlarning o'rni hamda rolini yoritib beradi. Tadqiqotda ta'lim sifatini oshirishda milliy o'zlikni anglashning ahamiyati va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishda milliy ruhning ta'siri asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada ta'lim va tarbiya jarayonini integratsiyalash bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: milliy tarbiya, zamonaviy ta'lim, integratsiya, globallashuv, ma'naviyat, innovatsiya, pedagogik texnologiya, komil inson, qadriyat, raqamli avlod.

Аннотация: В данной статье научно-педагогически анализируются вопросы гармонизации традиций национального воспитания с современными образовательными технологиями в условиях глобализации и цифровой трансформации. Автор освещает место и роль наследия предков, национальных ценностей и инновационных педагогических методов в формировании духовно-нравственного облика молодого поколения. В исследовании обосновывается значение национального самосознания в повышении качества образования и влияние национального духа на формирование современных компетенций. Также в статье представлены практические рекомендации по интеграции учебного и воспитательного процессов.

Ключевые слова: национальное воспитание, современное образование, интеграция, глобализация, духовность, инновации, педагогическая технология, совершенный человек, ценность, цифровое поколение.

Abstract. This article provides a scientific and pedagogical analysis of the issues of harmonizing national upbringing traditions with modern educational technologies in the context of globalization and digital transformation. The author highlights the place and role of ancestral heritage, national values, and innovative pedagogical methods in shaping the spiritual and moral character of the younger generation. The study substantiates the importance of national identity in improving the quality of education and the influence of the national spirit on the development of modern competencies. The article also provides practical recommendations for integrating the educational and upbringing processes.

Keywords: national upbringing, modern education, integration, globalization, spirituality, innovation, pedagogical technology, perfect human, value, digital generation.

Bugungi globallashuv va tezkor modernizatsiya jarayonlari insoniyat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi shiddatli o'zgarishlar, axborot oqimining beqiyos darajada o'sishi va texnologik inqiloblar bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda har bir millat o'zining mavjudligini saqlab qolish, raqobatbardosh bo'lish va kelajak avlodni munosib kamolga yetkazish masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida ham aynan ta'lim va tarbiya tizimini tubdan yangilash vazifasi turibdi. Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim va tarbiya sohasidagi islohotlar yoshlarimizning tafakkur va dunyoqarashini o'zgartirish, ularning aqliy saqlohiyati va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlashning muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi" degan g'oya asosida atroflicha ishlar tashkil etilmoqda. [1]

Uchinchi Renessansni ta'minlaydigan fenomen bu bugungi zamon yoshlaridir. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz uchinchi Renessans poydevorini qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat kuchli ta'lim va yuksak ma'naviyat orqaligina erisha olamiz". [2] Ta'lim va tarbiya bir-biridan ayro bo'lmagan, bir tanganing ikki tomoni kabi chambarchas bog'liq jarayonlardir. Ammo bugungi kunda ta'limga texnokratik yondashuvning kuchayishi, ya'ni faqatgina bilim va ko'nikmalarni (hard skills) egallashga intilish, tarbiya masalasini, xususan milliy tarbiya masalasini ikkinchi darajaga tushirib qo'yish xavfini tug'dirmoqda. Shu sababli, milliy tarbiya va zamonaviy ta'limning uyg'unligini ta'minlash bugungi kun pedagogikasining eng dolzarb muammosidir.

Zamonaviy ta'lim tizimi zamon talablariga moslashgan, innovatsiyalar va texnologiyalar asosida shakllangan jarayon. Zamonaviy ta'lim tizimida texnologiyalar muhim rol o'ynaydi. Uning afzalliklaridan biri individual yondashuvning ta'minlanishidir. Ta'limda individual yondashuv zamonaviy pedagogikaning eng muhim tamoyillaridan biri hisoblanib, uning asosiy vazifasi har bir o'quvchini o'ziga xos xususiyati va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'lim ta'lim jarayonini shakllantirishdir. Bu borada 2020 yil 30 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi yoshlar ishlari agentligini tashkil etish to'g'risida" gi PQ -4768-son Prezident Qarori , "O'zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida" gi (1991) Qonun, 2017 yil 2 fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni , 2021 yil 3 martdagi " Ma'naviy – ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida" gi PQ – 5040 – Qarorlari asosida ishlar tashkil etilmoqda.

Milliy tarbiya – bu xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, madaniy merosi, diniy va dunyoviy qarashlari, urf-odatlar hamda axloqiy me'yorlarini o'z ichiga olgan murakkab tizimdir. Milliy tarbiya keng ma'noda oila , maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida amalga oshirilayotgan ishlar, butun ijtimoiy tizim, uning g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, ommaviy axborot vositalari faoliyatini ham qamrab oladi. Sharq xalqlari, xususan o'zbek xalqi azaldan tarbiya masalasiga hayot-mamot masalasi deb qaragan. Shu o'rinda ma'rifatparvar jadid bobomiz Abdulla Avloniyning " Tarbiya biz uchun yo hayot- yo

mamot, yo najot- yo halokat , yo saodat – yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so’zlari naqadar haqiqat ekanligini bugungi kunimiz misolida anglashimiz mumkin.

Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi. Bu ikkala jarayon ishi uyg’un holda olib borilishi samarali natijani ta’minlaydi. Ajdodlarimiz merosiga nazar tashlasak, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi buyuk mutafakkirlar nafaqat aniq fanlar, balki axloq va odob masalalarida ham yuksak namunalar ko’rsatishgan. Ularning fikricha, ilmsiz odam johil bo’lsa, tarbiyasiz olim jamiyat uchun xavflidir. Masalan, Al-Forobiy "Baxt-saodatga erishuv haqida"gi asarida inson kamolotini uning aqliy va axloqiy fazilatlarini birligida ko’radi. Buyuk bobomiz Imom G’azzoliy shunday degan edilar: “ Bolalar ota- onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqsh- u tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi.

Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o’z holiga tashlab qo’yilsa, oxir- oqibat halok bo’ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo’lganlarning gardaniga tushadi.” Alisher Navoiy o’z asarlarida komil inson g’oyasini ilgari surgan. Uning qarashlariga ko’ra insonda halollik, mehr- oqibat, adolat , rostgo’ylik, sadoqat, poklik tuyg’ulari ustuvor bo’lishi lozim.

“ Xamsa”, “ Mahbub ul – qulub “ kabi asarlarida axloqiy – pedagogik jarayonlar ochib berilgan. Milliy tarbiya va zamonaviy ta’lim uyg’unligi- komil insonni voyaga yetkazishning asosiy garovidir. Milliy tarbiyaning o’zagi - "Komil inson" g’oyasidir. Bu g’oya o’zida halollik Vatanga sadoqat, kattaga hurmat, kichikka izzat, oilaga sadoqat kabi insoniy fazilatlarini mujassam etadi. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarimizning ongiga "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta’siri kirib kelayotgan bir paytda, milliy tarbiya o’ziga xos "ma’naviy immunitet" vazifasini o’taydi. Qadriyatlar va zamonaviylik birlashganda , yosh avlod ma’nan yuksak va ruhan barkamol bo’lib voyaga yetadi.

Zamonaviy ta’lim tizimi XXI asr talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashni maqsad qiladi. Bugungi kunda ta’lim paradigmasi "bilim berish"dan "faoliyatga o’rgatish"ga o’zgardi. Zamonaviy ta’limning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Raqamlashtirish (E-learning, AI, VR/AR texnologiyalari);
- Tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish;
- STEM va STEAM yondashuvlari;
- Uzluksiz ta’lim (Life-long learning).

Hozirgi yoshlar "Raqamli avlod" (Digital Natives) vakillaridir. Ularning axborotni qabul qilish tezligi va uslubi avvalgi avlodlardan tubdan farq qiladi. Shuning uchun zamonaviy ta’lim tizimi interaktivlik, vizuallashuv va amaliy yo’naltirilganlikni talab etadi. Biroq, zamonaviy ta’lim faqat texnologik jarayon bo’lib qolsa, u insonni "aqlli robot"ga aylantirib qo’yishi mumkin. Insoniylik, hamdardlik (empathy) va axloqiy mas’uliyat faqat tarbiya orqali shakllanadi.

Milliy tarbiya va zamonaviy ta’limni uyg’unlashtirish – bu shunchaki darslar davomida o’tmish haqida gapirish emas, balki zamonaviy texnologiyalardan foydalanib milliy qadriyatlarni yangicha talqinda yoshlarga yetkazishdir. Ushbu integratsiyani quyidagi yo’nalishlarda amalga oshirish mumkin:

1. Dars jarayonlarida milliy qadriyatlar elementlaridan foydalanish. Masalan, matematika yoki fizika darslarida masalalarni yechishda buyuk ajdodlarimiz kashfiyotlaridan misollar keltirish o'quvchida ham fan bo'yicha bilimni, ham milliy g'ururni shakllantiradi. Matematika darsida Al-Xorazmiy algoritmlarini tushuntirish orqali o'quvchining fan asoschilariga bo'lgan hurmati oshadi. Boshlang'ich sinf darsliklari buning yaqqol namunasidir desak adashmaymiz. O'qish darslarida buyuk bobolarimiz hayotiga doir ma'lumotlar bolalarga mos, sodda, ravon tilda yoritib berilgan.

2. Raqamli etika va milliy tarbiya. Zamonaviy ta'limning ajralmas qismi bo'lgan informatika va AKT darslarida "Internet odobi", "Kiber-xavfsizlik" tushunchalarini milliy andishaviylik va odob me'yorlari bilan bog'lash zarur. Virtual dunyoda ham o'zbekona odob-axloq normalariga rioya qilish tarbiyaning bir qismi bo'lishi kerak. Chunki, biz axborot asrida yashayapmiz. Axborotlar oqimidan o'rinli, samarali foydalanish ko'nikmasini shakllantirib borishimiz zarur. Bu orqali yoshlarimiz ongini salbiy axborot xurujlaridan himoya qilish, milliy o'zlikni anglash ko'nikmalari shakllanib boradi.

3. San'at va texnologiya uyg'unligi. Milliy hunarmandchilik namunalarini (misgarlik, zardo'zlik, ganchkorlik) zamonaviy 3D modellash yoki dizayn darslarida qo'llash. Bu orqali o'quvchilar ham qadimiy merosni o'rganadi, ham zamonaviy dasturiy ta'minotlarda ishlashni o'rganadi. Buni bugungi kundagi xalqaro o'quv dasturi STEAM asosida ham ko'rishimiz mumkin.

O'tkazilgan pedagogik kuzatishlar va so'rovnomalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida milliy ruh va zamonaviy metodika birlashtirilgan ta'lim muassasalarida o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichi 15-20% ga yuqori bo'ladi. Buning sababi, o'quvchi o'zi uchun tanish bo'lgan madaniy muhitda yangi bilimlarni osonroq qabul qiladi. Bundan tashqari, tarbiya va ta'lim uyg'unligi quyidagi ijobiy natijalarni beradi:

- o'quvchilarda milliy g'urur va vatanga sadoqat shakllanadi.
- yoshlarning "ommaviy madaniyat"ning yot g'oyalariga qarshi kurashish qobiliyati (ma'naviy immunitet) oshadi.
- ta'lim oluvchilarda nafaqat professional bilimlar, balki jamoada ishlash, o'zaro yordam kabi ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy tarbiya va zamonaviy ta'lim bir-biriga zid tushunchalar emas, balki bir-birini to'ldiruvchi tizimlardir. Milliy tarbiya – bu insonning ildizi, zamonaviy ta'lim esa uning shox va barglaridir. Ildizi mustahkam bo'lmagan daraxt har qanday shamolda yiqilgani kabi, milliy tarbiyasi bo'lmagan mutaxassis ham jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'ya olmaydi.

Ushbu uyg'unlikni yanada mustahkamlash uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Pedagogik kadrlarni tayyorlashda milliy qadriyatlar va zamonaviy metodikani integratsiya qilish bo'yicha maxsus kurslarni joriy etish. Bugungi ta'limda bu juda ham muhim o'rin tutadi. Zamonaviy pedagog kadrlarni yetishtirish uchun maxsus o'quv – amaliyot kurslari va startap loyihalarning amaliyotga tadbiq etilishi ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

2. Darsliklarning mazmunini milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida qayta ko'rib chiqish.

3. Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligini raqamli platformalar orqali tizimli yo'lga qo'yish. Bu orqali uzviy aloqadorlik ta'minlanadi, vaqt tejaladi, bolalarning ta'lim – tarbiya olish jarayonlari nazorat va tartib asosiga qurilishi uchun zamin hozirlanadi.

4. Yoshlar uchun milliy ruhdagi zamonaviy mobil o'yinlar, animatsion filmlar va ta'limiy kontentlar yaratishni davlat darajasida qo'llab-quvvatlash. Bu borada prezidentimiz tashabbusi va qo'llab – quvvatlashlari asosida ishlab chiqilgan yangi multiplikatsion loyiha “ Bek va Lola” loyihasi ham diqqatga sazovor, tarbiyaviy loyihalardan biridir. “ Bek va Lola “ animatsion multfilmi bolajonlarga milliy qadriyatlarimizni anglatish, ta'lim olish, odob – axloq qoidalarini o'rgatish, tabiatni asrash va ularni sportga undab sog'lom rivojlanishlari uchun vosita vazifasini bajaradi.

Faqatgina ma'naviy boy va zamonaviy bilimli avlodgina Uchinchi Renessansning haqiqiy bunyodkori bo'la oladi. Bu avlodni tarbiyalash , poydevor qo'yish esa oiladan boshlanadi. Shunday ekan, ta'lim va tarbiya jarayonida oila, mahalla, maktab rolini kuchaytirishimiz, uning poydevorini mustahkam qurishimiz lozim. Bu borada vaqtimizni, mablag'imizni ayamasdan , qo'lni qo'lga berib harakat qilsak, yurtimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'taruvchi, jahon sahnasida o'z so'zini ayta oladigan, Vatanimiz sha'nini himoya qiluvchi, har sohada ilg'or yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2008.
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil.
4. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti", 1993.
5. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1992.
6. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar: darslik / tahrir hay'ati. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2018.
7. Abdullayev O. (2021). “Ta'lim tizimida o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish muammolari” Ilmiy Maqolalar to'plami 3(5), 55-62.
8. Elektron manbalar: www.lex.uz, www.edu.uz, www.ziyonet.uz.